



TO'QIMA HADIS BORASIDAGI QARASHLAR TAHLILI

Jurakulov Sunnatulloh

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi
+998997581914
alnavaiyuz@gmail.com

To'rayev No'monjon Nasibjonovich

Ilmiy rahbar:

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrası
dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15631916>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2025 yil
Ma'qullandi: 07-June 2025 yil
Nashr qilindi: 10-June 2025 yil

KEY WORDS

Hadis, sunnat, mavzu hadis, to'qima hadis, soxta hadis, uydirma, botil hadis, hadisshunoslik, isnod, matn, jarh va ta'dil, roviy, hadis to'qish sabablari, Ibn Hajar Asqaloni, jahobiza, to'qima hadisni aniqlashdagi metodlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hadislarining ishonchliligi masalasi, xususan, hadisshunoslikda "mavzu" yoki "to'qima" hadislar muammosi tahlil qilinadi. Maqolada "mavzu hadis" atamasining mohiyati, uning hadisshunoslikdagi ta'rif va tavsifi yoritiladi. Shuningdek, hadis to'qishning sabablari – siyosiy ixtiloflar, firqachilik, shaxsiy manfaatlar, johillik yoki islom dushmanlarining harakatlari kabi omillar ko'rib chiqiladi. Hadis to'qish bilan tanilgan shaxslar va jarh va ta'dil ilmi olimlarining (masalan, Ibn Hajar Asqaloni, Aliyul Qoriy, Ibn Saloh kabi) ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qarashlari va uslublari haqida so'z yuritiladi.

Islom dini mohiyatining insonparvarlik, bag'rikenglik, ma'naviy poklik va adolat asosida barpo bo'lgani xalqimizga boy ilmiy meros orqali yetkazilmoqda. Hadis ilmining chuqur anglanishi, sahih va zaif rivoyatlar orasidagi tafovutni tushunish esa bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, islom dini ta'limotining asosiy manbalari Qur'oni Karim va Payg'ambar Muhammad (s.a.v)ning sunnatidir. Sunnat asosan hadislar orqali yetib kelgan bo'lib, ular Payg'ambar (s.a.v)ning so'zlari, ishlari, taqrirlari (ma'qullashlari) va sifatlarini o'z ichiga oladi. Hadislarining sahihligini ta'minlash, ularni vaqt o'tishi bilan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlar, qo'shimchalar va ayniqsa, to'qima (mavzu) rivoyatlardan himoya qilish maqsadida ilk asrlardan islom olamida hadis ilmi shakllandi va rivojlandi. Bu fan hadisning ham isnodi (roviylar zanjiri), ham matnini chuqur tahlil qilishga asoslangan maxsus metodologiyani ishlab chiqdi.

Ammo, turli tarixiy, ijtimoiy, siyosiy va shaxsiy sabablarga ko'ra Payg'ambar (s.a.v) nomidan yolg'on so'zlarni to'qish, ya'ni "hadis to'qish" hollari uchrab turgan. Bu holat islom ta'limotining sofliqiga jiddiy tahdid solgan va musulmonlar orasida ixtiloflarga sabab bo'lgan. Shuning uchun ham muhaddis olimlar mavzu hadislarini aniqlash, ularni sahih hadislardan ajratish va bunday hadislarining tarqalishiga yo'l qo'ymaslikni o'zlarining asosiy vazifalaridan biri deb bilganlar.

ASOSIY QISM

To'qima hadis atamasi, unga berilgan ta'riflar tahlili. Hadisshunoslikda to'qima hadis atamasi mavjud bo'lib, u "mavzu hadis" deb nomlanadi. "Mavzu" so'zi "vazaa-yazau" fe'lidan olingan ismi maf'ul bo'lib, lug'atda "belgilangan", "qo'yilgan", "uydirma", "o'ylab chiqarilgan" kabi ma'nolarni bildiradi.

Zabidiy "Al-Qomus" sharhida yozadi: "Majoziy ma'noda "ahodis mavzu'a" (soxtalashtirilgan hadislar) deganda to'qib chiqarilgan va Payg'ambar (s.a.v.) nomiga yolg'on to'qilgan hadislar tushuniladi. "Biror narsani "vaz" qildi" deganda esa uni o'ylab topdi, degan ma'no ko'zda tutiladi".

"Mavzu hadis" atamasiga muhaddis-olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan:

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: "Mavzu xabar – to'qilgan yolg'on bo'lib, Rasululloh (s.a.v.)ga nisbat berilgan xabardir", – deb aytgan.

Agar roviyga qarshi tanqid sababi Rasululloh (s.a.v.)ga yolg'on so'zlash bo'lsa, uning hadisi "mavzu" deb ataladi. Bu, Rasulullohga nisbat berilgan, o'ylab chiqarilgan yolg'on xabardir.

Hadis olimlari to'qima hadisni quyidagicha ta'riflaganlar: "Bu, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)dan so'z, amal yoki tasdiq shaklida chiqmagan, lekin unga bilimsizlik yoki yomon niyatdan kelib chiqqan holda noto'g'ri (xato bilan) yoki ataylab (qasddan) qo'shib yuborilgan hadisdir. Ba'zi olimlar esa "mavzu" atamasini faqat ataylab to'qilgan hadislar uchun ishlatib, Payg'ambar (s.a.v.)ga noto'g'ri nisbat etilgan, lekin qasddan emas, balki xato bilan yuzaga kelgan rivoyatlarni esa "botil", ya'ni yolg'on, haqiqatdan holi deb ataganlar.

Mavzu hadis atamasining hadisshunoslik manbalariga ilmiy istiloh sifatida kirishi qachondan boshlangani borasida yoritiladigan bo'lsa, dastlabki diroyat ilmi (hadis istilohi) kitoblaridan Hokim Naysaburiyning "Ma'rifat ulumul hadis", Romahurmuziyning "Muhaddisul fosil baynar roviy val vo'iy" kabi kitoblarda aynan "mavzu" hadis atamasi uchramaydi, balki bu kitoblarda hadis to'qishlik borasida Payg'ambar (s.a.v) alayhissalomdan mutavotir darajadagi rivoyat bir necha marta takrorlangan: "من كذب علي متعمداً فليتبوأ مقعده من النار" (Kim menga qasddan yolg'on to'qisa, do'zaxdan o'rnini hozirlayversin). Bundan tashqari bir nechta to'qilgan hadislar yoki bor hadisga o'zidan so'z qo'shib qo'yilgan hadislar hamda jarh va ta'dil qismida ayrim yolg'on to'qigan kimsalar eslab o'tilgan. Ushbu kitoblardan keyin hadis istilohi borasida yozilgan Xatib Bag'dodiyning "Kifoya fi ilmir rivoya" asarida alohida "Mavzu hadis" borasida nomlangan bob bo'lmasa ham, "Kazzob" (yolg'onchi) borasidagi bob bo'lib undan hadis qabul qilinishi yoki qilinmasligi haqida tahlillarni keltirganlar.

To'qima hadislarining paydo bo'lish sabab va omillari. Hadis to'qishning turlari va sabablarini dastlabki hadis istilohi kitoblaridan XIII asrda "Ibn Salohning muqaddima"sida quyidagicha ta'rif keltiradi:

"Hadis to'qib chiqaruvchilar (mavzu hadis qo'shuvchilar) turlicha toifalardir. Ularning ichida eng katta zarar keltirganlari – zuhdga mansub bo'lgan ayrim kishilar bo'lib, ular (soxta) hadislarini savob uchun to'qib chiqarganliklarini iddao qilganlar. Odamlar esa ularga ishonib va ularga tayanib, ularning mavzu hadislarini qabul qilib yuborganlar.

Keyin esa hadis ilmidagi yetuk muhaddislar bu soxta rivoyatlarning mohiyatini fosh qilib, ularning isnodini bekor qilishga harakat qilganlar.

Bizga yetib kelgan xabarlarga ko'ra, Imom Abu Bakr Sam'oniy shunday degan:

Karromiyadan bo'lgan ayrim kishilar targ'ib va tarxib (rag'batlantirish va qo'rqitish) masalalarida hadis to'qish joiz, deb hisoblaganlar".

Bilgin, yolg'onchilar ikki xil bo'ladi:

1. Birinchisi, Payg'ambar (s.a.v) haqida noto'g'ri gapiruvchilar, ular bir nechta turga bo'linadi:

– Ba'zilar dini hurmat qilmagan holda Payg'ambar (s.a.v)ga nisbat bergan gapni to'qib chiqaradi.

– Ba'zilar johil zohidlar, fazilatli va rag'batlantiruvchi hadislarni yaratib chiqargan.

– G'aroyiblikni e'lon qilish uchun gapirgan fosiq roviylar.

– Bid'atchi va mazhab ta'qibchilar tarafidan tarqatilgan rivoyatlar.

– Dunyo havosiga ergashib, uzr qidiruvchi roviylar.

Bu toifalarda hadis ilmi ustalari va roviyni tanish mutaxassislar tomonidan fosh qilingan roviylar mavjud.

2. Ikkinchi turdagi yolg'onchilar:

– Yolg'on matnga sahih isnodni qo'shgan.

– Isnodlarga o'zgartirish kiritib, ortiqcha narsalarni qo'shgan.

– Yolg'on gapirib, ko'rmagan odamni ko'rdim deb da'vo qilgan.

Shuningdek, aniqlik, xotira yoki shubhasizlik bilan hadisni rivoyat qilishga jur'at etgan roviylar ham yolg'onchi hisoblanadi.

Bunday odamlarning rivoyatlari qabul qilinmaydi, hatto bir marta yolg'on gapirsa ham, uning rivoyati ishonchsiz hisoblanadi.

Soxta hadis to'qib chiqaruvchi (vozi') kishi ba'zan o'zidan gap to'qib, uni rivoyat qiladi. Ba'zan esa donishmandlarning yoki boshqalarning gapini olib, uni Rasululloh (s.a.v.) ga nisbat beradi¹.

Ibn Salohning davriga qadar tarqalgan soxta hadis borasida ham misol keltirib ayrim mufasssirlarning o'z tafsirlarida soxta hadisni keltirgani va bu xato ekanligini aytadi.

Hadisning soxtaligini belgilashga doir mezonlar: tarixiy qiyosiy tahlil. "Hadis roviylarining kimdan rivoyat qilganida yolg'on gapirganini bilishning dalillaridan biri – u rivoyat qilayotgan kishining vafot sanasini va roviyning tug'ilgan yili hamda hayot davomiyligini bilishdir," — deya Xatib Bag'dodiy o'zining "Kifoya" kitobida to'qima hadisni aniqlashga oid fikrlarini keltiradi.

Ibn Saloh hadisning mavzu (to'qima) ekanligi quyidagilar orqali aniqlanadi deb yozadi:

1. Uni to'qib chiqargan kishining o'zi e'tirof etishi, yoki shu e'tirof darajasida bo'lgan biror narsa orqali.

2. Raviy yoki rivoyat qilingan gapning o'zidan kelib chiqadigan dalillar orqali.

Chunki ba'zan so'z va ma'nosidagi ojizlik va noo'rinlik uydirma ekanligiga ochiq-oydin dalil bo'ladi².

Ibn Saloh mavzu hadisni aniqlash borasida xulosa qilib deydi: "Kimdir: "Agar biror kishi o'zining hadis to'qiganini tan olsa ham, bu uning uydirma ekanini isbotlamaydi. Chunki odam o'ziga o'zi tuhmat qilib, odamlarda o'sha hadisga nisbatan shubha uyg'otish yoki uni rad etish uchun yolg'on aytishi mumkin" – desa, biz bunga shunday javob beramiz:

Agar bir hadis faqat bitta kishi orqali ma'lum bo'lsa va u kishi o'zining uni uydirganini tan olsa, bu uning rivoyatini butunlay yo'qqa chiqaradi. Shariat qoidalariga ko'ra, odam o'z iqrori asosida hukm qilinadi, hatto aslida bu gap rost bo'lmasa ham. Shuning uchun bunday

¹ Dr. Oysha Abdurahmon. Muqaddima ibn Saloh – Qohira: Dorul Ma'orif, 1990. – B. 279.

² Dr. Oysha Abdurahmon Muqaddima ibn Saloh – Qohira: Dorul Ma'orif, 1990. – B. 280.

hadis uydirma (mavzu) deb hukm qilinadi, va bu orqali hadis to'qiganligini inkor etib bo'lmaydi.

"Nuzhatun nazar"da Asqaloniyl hadisning mavzu (soxta) ekanligi qanday aniqlanishi mumkinligini izohlaydi. Quyida ularning qanday fikr bildirganlarini ko'rishimiz mumkin:

وقد يُعَرَّفُ الوضع بإقرار واضعِهِ، قال ابن دقيق العيد: لكن لا يُقَطَّعُ بذلك، لاحتمال أن يكون كَذَبَ في ذلك الإقرار

Ba'zida to'qima hadisni uni to'qigan odamning iqrorigan bilib olish mumkin. Ibn Daqiqul Iyd aytadi: "Ammo bu bilan qat'iy hukm qilib bo'lmaydi, chunki u kishi bu iqrorida ham yolg'on gapirgan bo'lishi mumkin".

وَقَهُمْ مِنْهُ بَعْضُهُمْ أَنَّهُ لَا يُعْمَلُ بِذَلِكَ الْإِقْرَارُ أَصْلًا، وَلَيْسَ ذَلِكَ مُرَادَهُ، وَإِنَّمَا نَفَى الْقَطْعَ بِذَلِكَ، وَلَا يَلْزَمُ مِنْ نَفْيِ الْقَطْعِ نَفْيُ الْحُكْمِ؛ لِأَنَّ الْحُكْمَ يَقَعُ بِالظَّنِّ الْغَالِبِ، وَهُوَ هُنَا كَذَلِكَ

Ba'zi kishilar bu gapdan butunlay bunday iqrorga amal qilinmaydi, deb tushunib qolishgan. Holbuki bu muallifning maqsadi emas. Maqsad — faqat qat'iy hukm chiqarilmasligi. Ammo qat'iylik bo'lmasa ham, hukm chiqarish mumkin, chunki hukm g'alaba qilgan gumon asosida chiqariladi — bu yerda ham shunday.

Bu har doim ham ustun kelgan gumonga tayanmaydi; ba'zida u bo'ladi, ba'zida esa yo'q. Chunki bu qarinalar (dalillar) va holatlarga qarab belgilanadi. Bu ham ularning usulining go'zal jihatlardan biri: ular bu masalaga e'tibor berishgan va aqlni o'rnida ishlatishgan.

وَلَوْ لَا ذَلِكَ لَمَا سَاغَ قَتْلُ الْمُقَرِّ بِالْقَتْلِ، وَلَا رَجُمُ الْمُعْتَرِفِ بِالزَّانِي؛ لِاحْتِمَالِ أَنْ يَكُونَ كَاذِبِينَ فِيمَا اعْتَرَفَا بِهِ

Agar bu (ya'ni, ustun kelgan gumon asosida hukm chiqarish) bo'lmaganida edi, unda o'zini qotillikka iqror etgan kishini o'ldirish, yoki zino qilganini tan olgan kishini toshbo'ron qilish ham joiz bo'lmas edi — axir ularning iqrorida ham yolg'on bo'lishi mumkin, bu to'g'ri. Ammo bu ikki holat orasidagi farqni ham e'tiborga olish kerak. Chunki hadis to'qiganini tan olish — dinni buzish va uni tahqirlashga tengdir. Ammo kazzob odam bunday iqroringan uni o'ldirishga olib kelishini bilmasligi mumkin. Zino yoki qotillikni tan olish esa shar'iy jazoni aniq talab qiladi.

وَمِنْ الْقَرَائِنِ، الَّتِي يُدْرَكُ بِهَا الْوَضْعُ، مَا يُؤْخَذُ مِنْ حَالِ الرَّائِي

To'qima hadisni aniqlashda yordam beruvchi dalillardan biri — bu roviyning holatidan olinadigan belgilardir.

Yana bir dalil:

...ومنها ما يُؤْخَذُ مِنْ حَالِ الْمُرَوِي

Ba'zan to'qima hadisning matnidani ham bilib olish mumkin — ya'ni, u Qur'onga, mutavotir sunnatga, qat'iy ijmo'ga yoki ochiq aqlga qarama-qarshi bo'lsa va bunday holatda hech qanday ta'vil (mazmuniy izoh) bo'lmasa.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, hadis ilmi o'z ahamiyati muhim tafsiloti nazaridan islom ilmlari orasida qadimda va aynan bugungi ushbu ilm yuzasidan masalalar qayta ko'tarilgan zamonda muhim o'rin egallaydi. Mazkur ehtiyojdan kelib chiqib, soha vakillari tomonidan xalqimizda yot g'oyalarga nisbatan imunitetni shakllantirish maqsadida ommabop asarlar yozilmoqda. Xalq birligi, tinchligini saqlash uchun ularni tafriqaga tushuruvchi ma'lumotlarga ham naqlan, ham aqlan yondasha oladigan, ommaga to'g'ri tarafni ko'rsatib bera oladigan ilmiy kadrlarni tayyorlash maqsadida qonun ruxsat etgan ta'lim muassasalarida ushbu fan reja asosida o'qitilmoqda hamda ustoz va talabalar tomonidan fan doirasidagi asarlar tadqiq qilinmoqda. Hozirda omma oarasida yurgan to'qima rivoyatlar va ularning payg'ambar (s.a.v.)ga nisbat berilishiga doir masalalar ham kun tartibiga ko'ndalang qo'yilmoqda. Shu sababli ham bu

masala doirasida ilmiy va ommabop materiallar tayyorlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Avvoma. Hadisi sharifning o'rni. – Toshkent: Hilol nashr, 2018. – B. 222.
2. Rahimjonov D, Murodov D, Obidov R, Alimova M. Hadisshunoslik. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2013. – B. 133.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 376.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. – Toshkent: Hilol nashr, 2016. – J.1. – B. 276.
5. Mulla Aliy Qoriy. Al-Asrorul marfu'a fi axboril mavzu'a – Bayrut: al-Maktabul islamiy. 1986. – B. 268
6. Jaloliddin Suyutiy. Tadribur roviy fi sharhi taqriybin navaviy. – Bayrut: Maktabatul kavsar, 2006. –B. 1078.
7. Luqmon Hakim Azhariy. Imdodul mug'is bitashili ulumil hadis. – Qohira: Dorus solih, 2017. –B. 223.
8. Ali ibn Muhammad Haroviy Qoriy. Sharhu Nuxbatil fikar. – Bayrut: Dorul qalam, 2015. –B. 929.

INNOVATIVE
ACADEMY